

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**Telekommunikatsiya texnologiyalari va kasbiy ta'limi fakulteti
«Dasturiy injiniring» kafedrasining «5330600- Dasturiy injiniring»
mutaxassisligining**

4-bosqich talabasi G'afurov Mirzobekning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzusi: Tarjimon va lug'at dasturlari modellari va algoritmlari yordamida
qoraqolpoq va o'zbek tillari uchun ochiq kodli dasturiy vosita ishlab chiqish.**

Ilimiy rahbar: _____ prof. Uteuliev N. U.

Kafedra mudiri: _____ prof. Uteuliev N. U.

NUKUS - 2019 y

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

Telekommunikatsiya texnologiyalari va kasbiy ta'limi fakulteti

«Dasturiy injiniring» kafedrası

TASDIQLAYMAN

Kafedra mudiri _____

«___» _____ 2018 y.

Komiljanov Sardorbek ning

**“Tarjimon va lug’at dasturlari modellari va algoritmlari yordamida
qoraqolpoq va o’zbek tillari uchun ochiq kodli dasturiy vosita ishlab chiqish”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga.**

TOPSHIRIQ

**Bitiruv malakaviy ishining mavzusi TATU NF-ning «__» _____ 2018 y.
buyrig’i bilan tasdiqlandi.**

BMI ni topshirish muddati: «__» _____ 2019-yil.

BMI ni o'rinlashga tegishli ma'lumotlar: o'qish materiallari, ma'ruza materiallari, ilmiy adabiyotlar va internet resurs materiallari.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi:

KIRISH

- 1. I-BOB. TARJIMON VA LUG'AT TIZIMLARINI QURISH VA ULARNING ISHLASH PRINTSPLARI**
- 2. II. TARJIMON VA LUG'AT DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN MODELLARI VA ALGORITMLAR TAHLILI**
- 3. III. AVTOMATLASHTIRILGAN TARJIMA TIZIMI NATIJALARI TAHLILI**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Topshiriq berilgan sana

« ____ » _____ 2018-yil.

Ilimiy rahbar: _____

Topshiriq oldi : _____

Bitiruv malakaviy ishining paragraflari bo'yincha maslahatchilar.

Paragraflar	Ilmiy maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriqni berdi	Topshiriqni oldi
1	N. Uteuliev		
2	N. Uteuliev		
3	N. Uteuliev		
4	N. Uteuliev		

BMI ni bajarish rejasi:

№	Bob(paragraf) termini	Bajarish muddati	Ilmiy rahbarning imzosi
1.	I-BOB. TARJIMON VA LUG'AT TIZIMLARINI QURISH VA ULARNING ISHLASH PRINTSPLARI	05.02.2019	
2.	II. TARJIMON VA LUG'AT DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN MODELLARI VA ALGORITMLAR TAHLILI	18.03.2019	
3.	III. AVTOMATLASHTIRILGAN TARJIMA TIZIMI NATIJALARI TAHLILI	13.04.2019	
4.	POWER POINT dasturida prezentatsiya tayyorlash	16.05.2019	

Bitiruvchi: _____

«____»_____ 2019 -yil.

Ilmiy rahbar: _____

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I-BOB. TARJIMON VA LUG'AT TIZIMLARINI QURISH VA ULARNING ISHLASH PRINTSPLARI.....	8
1.1. Tarjimon va lug'at tizimlari haqida umumiy tushunchalar.....	8
1.2. Tarjimon va lug'at tizimlarini qurish va ularning ishlash usullari.....	10
1.3. O'zbek va qoraqalpoq tillarida tarjimon va lug'at dasturlaridan foydalanish muammolari.....	13
1.4. Elektron lug'at dasturlari haqida umumiy tushuncha.....	15
II. TARJIMON VA LUG'AT DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN MODELLARI VA ALGORITMLAR TAHLILI	26
2.1. Tarjimon va lug'at dasturlari modelari.....	26
2.2. Statistik tarjima qilish modellari va algoritmlari.....	27
2.3. Tarjimon va lug'at dasturlari modelari va algoritmlari ko'magida qoraqalpoq a o'zbek tillari uchun ochiq kodli dasturiy vosita ishlab chiqishda neyron tarmoqlaridan foydalanish.....	31
2.4. Tarjima va lug'at dasturlarida ma'lumotlar bazasi va tashqi ma'lumotlar bilan ishlash.....	38
III. AVTOMATLASHTIRILGAN TARJIMA TIZIMI NATIJALARI TAHLILI.....	41
3.1. Mavjud tarjimon va lug'at tizimlarining afzalliklari va kamchiliklari. Tarjima sifatini baholash usullari.....	41
3.3. Tarjima va lug'at dasturlarini qurishda neyron tarmoqlaridan foydalanish .	46
3.4. Ishlab chiqilgan tarjimon va lug'at tizimi natijalari.....	47
ADABIYOTLAR	53
ILOVA.....	57

KIRISH

O'zbek va qoraqalpoq til juftliklari uchun yetarli parallel ma'lumotlarning kamligi bilan bir qatorda, turkchaga tarjima qilish juda murakkab muammo bo'lib, ularning morfologik murakkabligi va xilma-xilligi bilan bog'liq. Avtomatlashtirilgan tarjima axborot texnologiyalari sohasidagi dolzarb yo'nalishlardan biridir. Katta o'lchamdagi hujjat aylanmasi bilan ish yurituvchi tashkilotlar, ta'lim muassasalari va boshqa sohalar uchun turli maqsadlarda bir tildagi tekstlarni ikkinchi bir tilga ma'nosini yo'qotmagan holda tarjima qilish masalasi yechimini topmay qolmoqda. Misol uchuning dolzarbligi shundaki, to'g'ridan-to'g'ri inson qo'li bilan yozma tarzda yoki to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish protsessini amalga oshirish birinchi sababi, ko'p vaqtni talab qiladi va ikkinchi sababi, turli xatolarni keltirib chiqarishi mumkin va tarjima qilish protsessi ma'lum qoida va algoritmlarga bo'ysunmaydi. Shu sababdan bu muammoga aniq yechim topilmagan edi.

Tarjimon tizimlari va lug'at dasturlarini ishlab chiqish protsessida an'anaviy va statistik usullari yaqingacha keng qo'llanilib kelindi. Kelajakda ushbu muammoga sun'iy intellekt tizimlari ko'magida yechim topish imkoniyati paydo bo'ldi. Neyron tarmoq an'anaviy so'z birikmalariga asoslangan tarjima tizimidan tafovutli o'laroq ko'pgina konfiguratsiya qilingan kichik subkomponentlardan tashkil topgan, neyron tarjimasi jumlani o'qiydigan va to'g'ri tarjimini chiqaradigan yagona katta neyron tarmog'ini qurishga qaratilgan.

Har xil hujjatlar bilan ish yurituvchi tashkilotlar, ta'lim muassasalari va boshqa sohalar uchun turli maqsadlarda bir tildagi tekstlarni ikkinchi bir tilga ma'nosini yo'qotmagan holda tarjima qilish masalasi turli munozaralarga sabab bo'lib qolmoqda. Misol uchuning dolzarbligi shundaki, to'g'ridan-to'g'ri inson qo'li bilan yozma tarzda yoki to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish protsessini amalga oshirish birinchidan, tarjima qilish protsessi ma'lum qoida va algoritmlarga bo'ysunmaydi va ikkinchidan, turli xatolarni keltirib chiqarishi yoki ko'p vaqtni talab qilishi mumkin. Bu muammoga yaqin yillargacha aniq yechim topilmagan edi.

Shu sababdan sun'iy intellekt tizimlarini avtomatlashtirilgan tarjima sohasida qo'llanila boshlandi va bu sohada katta burilish bo'ldi. Shuningdek sun'iy neyron tarmoqlari tarjima qilish protsessida qo'llanila boshladi.

Tarjimon tizimlari bir qancha muammolarni yechishda foydalanilishi mumkin:

- So'zlar, frazalar va qisqa tekstlarni tez tarjima qilish;
- Ijtimoiy tarmoqlarda, messenjerlarda muloqot protsessida avtomatik tarjima;
- Nashrlar va maqolalarni o'qishda avtomatik tarjima;
- Kitoblarni bosqa tillarga tarjima qilish protsessida

Tarjimon va lug'at dasturlari modelari va algoritmlari bitiruv malakaviy ishining obyektidir. Bitiruv malakaviy ishining predmetini tarjima qilish modellari, *avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari* algoritmlari, statistik tarjima va tarjimon tizimlari ishlash jarayonlari va usullari tashkil qiladi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi tarjimon va lug'at dasturlari modelari va algoritmlari ko'magida ochiq kodli dasturiy vosita ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.

- Tarjimon va lug'at dasturlari modelari va algoritmlari bilan ishlashda yuz beradigan muammolarning yechimlarini o'rganish va tahlil qilish;
- Tarjimon va lug'at dasturlari modelari va algoritmlarini boshqa tizimlar tarjimasini bilan taqqoslagan holda natijalarni tahlil qilish;
- Tarjimon va lug'at dasturlari modelari va algoritmlari asosida dastur ishlab chiqish;
- Tarjimon va lug'at dasturlarini tadbiq qilish;

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. O'zbek-Qoraqalpoq tekst tarjimoni tizimi;
2. Model va algoritmlarga tayangan holda ochiq kodli (open source) Open NMT loyihasi asosida yangi talqindagi tarjimon tizimi faoliyatini boshladi;

3. Ma'lumotlar bazasi o'rnini bosuvchi parallel tekstlarni yig'ish usullari ishlab chiqildi va bit necha turkiy tillardagi parallel tekstlar yig'ildi va o'lchami belgilandi;

Bitiruv malakaviy ishida tekstlarni avtomatlashtirilgan tarjima qilish yondoshuvlari o'rganiladi. Bundan tashqari tekstlarni neyron tarmoq ko'magida tarjima qilish muammolari tahlil qilindi. O'zbek va boshqa turkiy tillar avtomatlashtirilgan tarjima modellari va ularning algoritmlari o'rganildi.

Turkiy tillar avtomatlashtirilgan tarjimasi sifatini yaxshilash uchun, parallel ma'lumotlar yetarlicha bo'lgan, o'zi o'rganuvchi neyron mashinali tarjimon tizimlari modellari asosida ishlab tuzilgan tizimlarni rivojlantirishimiz .

Tekstlarni avtomatlashtirilgan tarjima qilish tarixda kompyuter tarjimasi raqamli bo'lmagan muammolarni yechish uchun dastlab 1954 yilda AQShda mashhur Jorjtaun universitetida tajriba amalga oshirilgan.

O'zbekiston va MDHda avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarini ustida Nazirov Sh.A. [8], Grashenko L.A., Klishiniskiy E.S., [6] va Utueliyev N.U. [3, 4, 5] singari olimlar tadqiq qilgan.

Chet ellik olimlaridan Jey Marchiano, Kalchbrenner va Blunsom (2013), Sutskever (2014), Cho (2014) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan neyron tarmoqlari ko'magida mashina tarjima qilish tizimlari o'rganilgan .

Neyron tarmog'i texnologiyalaridan Microsoft, Google va Yandex singari kompaniyalar tomonidan tarjima jarayonlarida foydalanish yo'lga qo'yilgan. Google o'z tarjimon tizimini yaratishda o'z neyron tarmoqlarini qurishda rekurrent tarmoqlariga asoslandi va yangi GMNT (Google neyron avtomatlashtirilgan tarjimasi) tizimini ishlab chiqdi. Bu tizim ikkita 8 qatlamli neyron tarmog'idan tashkil topgan bo'lib, kiritilgan tekstni tahlil qiladi va sintezlaydi. Tarjima qilish protsessiga kiritilgan gap oldin (bir vaqtning o'zida chapdan, o'ngdan va qayta) o'qitiladi va ikkinchi neyron tarmoqqa jo'natiladi. Shu usulda ikkinchi tildagi tarjima gap tuziladi.

Bitiruv malakaviy ishi davomida tarjimon tizimi uchun kerak tekstlarni semantik tahlil qilish usullaridan, natijalarning sifatini tekshirish maqsadida ekspert inson tarjimasini bilan taqqoslandi.

Taklif qilingan model va algoritmi ko'p qatlamli neyron tarmoqni tadqiq qilishga imkon beruvchi dasturiy tizim shaklida amalga oshiriladi, shuningdek amaliy masalalarni, xususan, turkiy tillarda kompyuterli tekst tarjimasida uchrayotgan nuqsonlarni yechishga yordam beradi. Bu o'z navbatida turkiy va boshqa rasmiy tillardagi axborotlar ko'lamini orttirishga, mamlakatlar rasmiy tillarining obrosini saqlab qolishiga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishida tekstlarni avtomatlashtirilgan tarjimani qilish modellari va usullari tahlil qilingan bo'lib, I-bobda tarjimon va lug'at tizimlarini qurish va ularning ishlash printsplari. Ushbu bobning qismlarida avtomatlashtirilgan tarjima teoriyasi asoslari, qoidalarga asoslangan, statistik va neyron avtomatlashtirilgan tarjima yondashuvlari tahlili, neyron avtomatlashtirilgan tarjima qilish arxitekturasi, semantika va kompyuter lingvistikasi muammolari, o'zbek-qoraqalpoq va boshqa turkiy tillarida avtomatlashtirilgan tarjima muammolari o'rganilgan. II-bobda tarjimon va lug'at dasturlarini ishlab chiqish uchun modellari va algoritmlar tahlil qilindi. III-bobda avtomatlashtirilgan tarjima tizimi natijalari tahlil qilindi.

I-BOB. TARJIMON VA LUG'AT TIZIMLARINI QURISH VA ULARNING ISHLASH PRINTSPLARI


Ushbu bobda tarjimon tizimlari va lug'at dasturlarining ishlash printsplari printsplari tadqiq qilinadi. Avtomatlashtirilgan tarjima usullari va modellari qaraldi. Shuningdek sifatli tarjima masalalari tadqiq qilindi.

1.1. Tarjimon va lug'at tizimlari haqida umumiy tushunchalar

Ma'lumki, tarjima bir tildagi tekstni boshqa tilga o'girishdan iborat bo'lgan adabiy ijod turi. Bu soha azaldan millatlararo aloqalarni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan va hozir ham o'z mavqeini yo'qotgani yo'q. Millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi deb snaladigan tarjimaning bir qancha turlari mavjud. U asliyat va qayta tiklangan tekst xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish xususiyatiga ko'ra tavsif, tadbil, sharh singari ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Bu soha bo'yicha ko'pchilik o'zbek, qoraqalpoq va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida bir tildagi tekst va so'zlarni boshqa tillarga tarjima qilish masalalari o'rganilgan va tarjima usullari, muammolari, talablari va aspektlari ochib berilgan. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi tarjima sohasiga yangi "avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari" terminini olib kirdi. Avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari yoxud kompyuterlashgan tarjima bu - kompyuter ko'magida bajariladigan, bir tabiiy tildan boshqasiga maxsus kompyuter dasturi ko'magida tekstlarni (yozma ravishda yoki og'zaki ravishda) tarjima qilish protsessidir. Yana shu singari tizimlarni ishlab chiqishga bog'liq bo'lgan ilmiy-tadqiqotlar yo'nalishi ham shunday nomlanadi. Kompyuterlashgan tarjima, ko'p xollarda avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari deyiladi, bu esa sun'iy tafakkurga ega bo'lgan amaliy jarayon tomonidan bajariladi [1, 28].

Avtomatlashtirilgan tarjimasining g'oyasi yaqinda paydo bo'lgan bo'lsa ham, tekstni avtomatlashtirishning dastlabki fikrlari XVII-asrga to'g'ri keladi. Biroq,

XX asrga qadar ular amaliyotga qo‘llanilmagan edi. Avtomatlashtirilgan tarjima va lug‘at tizimlari 1959-yillardan boshlab rivojlana boshladi. Mashinali tarjimon tizimlari rivojlanishi bilan tekstlarni mashina ko‘magida tarjima qilish muammollari o‘z yechimini topa boshladi. Hozirgi vaqtgacha tarjimon tizimlarida sifatli tarjima masalasi o‘z yechimini topmayotgan edi. Endilikda sun‘iy intellekt tizimlari va shu paytgacha to‘plangan tajribalar yordami bilan avtomatlashtirilgan tarjimon tizimlariga bo‘lgan nuqtai nazar tubdan o‘zgardi.



1.1-rasm. Mashinali tarjimon tizimlari rivojlanish etaplari

Mashinani tarjima tarjima modellari, usullari va algoritmlarini asosiga qurilgan maxsus kompyuter tizimi (bir qancha dasturlarni va texnik vositalarni) ko‘magida amalga oshiriladi. Bu tarjima qilishning aniq yo‘nalishi bo‘yicha (ma‘lum bir tildan ikkinchisiga) ma‘lum juft tillarda tarjima so‘z va frazalarini topish uchun tekst bo‘yicha tasodifiy va aniq belgilangan harakatlar ketma-ketligini anglatadi. Bunday tizimlar toifasi ikkita asosiy gruppaga bo‘linadi: elektron lug‘at va kompyuterli (*mashinali*) tarjima qilish tizimi [4, 28].

Avtomatlashtirilgan tarjima va lug‘at tizimlarining asosi bo‘lgan tarjima modeli tushunchasini izohlab o‘taylik. Tarjima modeli – bu jadval shaklida

berilgan bo‘lib, unda bir tildagi tizimga oid bo‘lgan barcha so‘zlar va frazalarning boshqa tilga tarjima qilgandagi mavjud ma‘nolari beriladi va shu ma‘nolarning ehtimolligi ko‘rsatiladi. Tarjima modeli foydalanish uch etapda ish bajaradi: oldin parallel hujjatlar keyin ularning ichidan gaplarning juftliklari, undan keyin bo‘lsa so‘z birikmalari yoki so‘zning juftliklari [28].

Hozirgacha har xil hujjatlar bilan ish yurituvchi tashkilotlar, ta‘lim muassasalari va boshqa sohalar uchun turli maqsadlarda bir tildagi tekstlarni ikkinchi bir tilga xatosiz tarjima qilish masalasi turli munozaralarga sabab bo‘lib qolmoqda. Misol uchuning dolzarbligi shundaki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson qo‘li bilan yozma tarzda yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish protsessini amalga oshirish birinchidan, ko‘p vaqtni talab qiladi va ikkinchidan, ko‘p resurs talab qilinadi.

To‘liq mashinani tarjima qilish protsessi asosiy etaplari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:


1. Tekstni kirish tilida tahlil qilish (lug‘atda so‘zlarni izlash, morfologik va sintaktik tahlil tekstni tushunish uchun modellashtirilgan);
2. Konvertatsiya (kirish tilidagi tekst tarkibidan chiqish tilidagi tekst tarkibiga o‘tish);
3. Tarjima qilinadigan tilidagi tekstni sintez qilish (tekstning sintaktik va morfologik tuzilishi tekstning qurilishiga o‘xshash).

Tarjimon tizimini yaratishdan maqsad – tarjima qilish protsessining sifatini yaxshilash, avtomatlashtirish va qulayliklar yaratishdan iborat.

1.2. Tarjimon va lug‘at tizimlarini qurish va ularning ishlash usullari

Hozirgacha kompyuter ko‘magida tarjima qilish algoritmlarini tuzishda asosan uchta yondashuvdan foydalanilib kelinmoqda, bular: qoidalarga asoslangan tarjima (*rule-based machine translation*), statistikaga asoslangan tarjima (*statistical-based machine translation*) va neyron tarmoq modellariga asoslangan (*neural machine translation*) yondoshuvlardir. Bu usullarni bir-biriga taqqoslaganda afzalliklari va minus tomonlari ham mavjud. Birinchi usul

an'anaviy bo'lib, bu usulda ishlovchi tizimlar (Promt, SYSTRAN, Linguatic va boshqalar) [7, 10] keng qo'llaniladi. An'anaviy usulda tarjima qilinadigan tekst tizim tomonidan maxsus algoritm ko'magida bir necha etapda tahlil qilinadi va tasdiqlangan tahlil tarjima variantiga biriktiriladi [1].



1.2-rasm. So'zga asoslangan an'anaviy avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari

Ikkinchi, statistika qonuniyatlariga asoslanib ishlovchi tarjima tizimlariga *Google translate* [17, 16], Yandex tarjimoni [12] va ABBYY [8] xizmatlarining avvalgi (2015-2016-yillargacha foydalangan) versiyalarini keltirib o'tishimiz mumkin. Bu usulning an'anaviy usuldan tafovutli tomoni, bunda tarjima uchun lingvistik algoritmdan foydalanmasdan stilistik bir-biriga mosligini taqqoslash orqali tarjima amalga oshiriladi. Statistika qonuniyatlariga asoslangan avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlarida katta ko'lamdagi til juftliklari ikkinchi tildagi varianti bilan taqqoslanadi. Til juftliklari – bu bir tilga tegishli tekst va gaplarning ularga mos ikkinchi parallel tildagi tarjimasini hisoblanadi. “*Statistika qonuniyatlariga asoslangan avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari*” tushunchasi ikki tildagi tekstlarni birlashtirishdan olingan ma'lumotlardan foydalanib, gaplarning ehtimolligi yuqori bo'lgan tarjimasini izlashga asoslangan, tarjima qilish muammosining yechimga yo'naltirilgan umumiy yo'nalishi deb bilamiz. Misol uchun, Yevropa iqtisodiy birlashmasining rasmiy hujjatlari 11 tadan ziyod tilda bosib chiqariladi; BMT bo'lsa hujjatlarini bir necha tilda bosib chiqaradi. Bu materiallar statistik avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari uchun qimmatli resurslardir.

Qoidalarga asoslangan va statistik tarjima usullaridan tafovutli tarzda *neyron tarmoq tarjimasini*, ularning kamchiliklarini hal qilgan holda yuzaga chiqdi. Bilamizki, statistik tarjima tizimlari lingvistikadan deyarli foydalanmaydi, yoki umuman foydalanmaydi. NMT asosan katta hajmdagi parallel tekstlar bilan

ishlaydi. An'anaviy tarjima bo'lsa, ko'pincha lingvistika qoidalariga asoslanadi. Neyron tarmoq atrjimasidan tafovutli o'laroq, qoidalarga asosalangan va statistik tarjima tizimlari sifat natijalari inson tarjimasi sifati singari bo'la olmaydi. Neyron tarmoqlarini tarjima qilish protsessida qo'llash avtomatlashtirilgan tarjima sohasiga katta o'zgarish olib keldi. Neyron tarmoqlar va o'zi o'rganuvchi avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari algoritmlari ko'magida, tarjima protsessesida neyron tarmoq modellaridan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi.

Tilning xususiyatlari (misol uchun, o'qish tushunchasi) faqatgina gaplashuvchilar soni juda ko'p bo'lganligi va til va umumiy grammatik xususiyatlari (misol uchun, ishlaydigan xotira miqdori) boshqacha ekanligi tafovut qilmaydi [29].

Asosan turkiy tarjimon dasturlarining tarjima qilish algoritimini ishlab chiqishda asosan o'zbek va qoraqalpoq tillarining stilistik va grammatik qonuniyatlariga tayaniladi. Turkiy tillar oilasiga mansub tillardagi tekstlarni tarjima qilishda so'z birikmalari, neologizmlar, sinonimlar va iboralar qiyinchilik tug'diradi. Shuni hisobga olgan xolda dasturda tarjima qilinishi kerak bo'lgan tekst ichidan oldin ko'lami bo'yicha uzunlari, ya'ni eng ko'p elementlisi tartib bo'yicha tanlab olinadi va ikkinchi tilga tarjima qilinadi. Shu tahlilda so'z birikmalarining ma'no buzilishining oldi olinadi.

Tarjimon tizimining eng asosiy qismi til modellari va parallel tekstlar hisoblanadi. Tarjima natijasining sifatli bo'lishi, parallel tekstlar ko'lamiga bog'liq. Shu sababdan parallel tekstlar avtomatik yoki to'g'ridan-to'g'ri to'ldirilib boriladi. Tekstni tarjima qilish etapida, qatorlar bilan ishlashda yana bir kuchli vosita muntazam ifoda algoritmlari bo'lib, ular ko'magida ko'lami va murakkabligidan qat'iy nazar har qanday qatorlar bilan ishlash imkoniyati mavjud. Bu esa tarjima qilish protsessida yuz beradigan stilistik muammolarni yechish imkoniyatini yaratadi. Avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari tarjima protsessida parallel tekstlar ishlatiladi va dasturdan katta ko'lamdagi qo'shma so'zlar va iboralar bilan ishlash talab qilinadi. Til bazasidagi elementlar sonining oshishi, yuqori tezlik va katta xotirani talab qiladi.

Axborot tizimlari rivojlanishi bilan, tabiiy tilni qayta ishlash singari muammolarga duch keldi. Semantik tahlil potentsial semantikani belgilash uchun mo'ljallangan. Tizim, faqat murojaat bo'lgan shaxs haqida emas, shuningdek, boshqa foydalanuvchilar bilan aloqalari haqida ham xabardor bo'lishi kerak. Tabiiy tilning noaniqligi, ba'zi savollarni izohlashda eng maqbul usullar ko'magida tahlil qilishni talab qiladi. Avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarga qo'yiladigan tezlik talabi, tizim uchun moslashtirilgan va tahlil qilish uchun zamonaviy algoritmlarni talab qiladi [29].

Mashinani tarjima qilish muammosini o'rganish, ushbu muammoning turli qismlarini alohida ko'rib chiqish kerak [4].

1.3. O'zbek va qoraqalpoq tillarida tarjimon va lug'at dasturlaridan foydalanish muammolari

Misol uchuning e'tiborga molik tomoni turkiy tillardagi ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy uslublar ko'lamining taqqosiy tadqiqi yetarlicha amalga oshirilmaganligidadir. Ma'lumki, elektron ma'lumotlar hajmining ko'pligi bo'yicha ingliz va rus tillari muhim o'rinni egallaydi. Tekstlarni chet tillardan turkiy tillarga, turkiy tillardan chet tillarga yoki bir turkiy tildan boshqasiga (*o'zbek-qoraqalpoq, qoraqalpoq-o'zbek*) kompyuter tizimisiz tarjima qilish protsessi ancha murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayon. Aniqrog'i, tarjima qilish protsessida so'zlarning semantik tarkibi rang-barangligi, gap bo'laklari tartibining o'zgarishi (*invertsiya*), so'zlar o'rtasidagi polisemiya (*ko'p ma'nolilik*), omonimiya (*shakldoshlik*), troplar (*ma'no ko'chish turlari*), frazeologik birliklar xususiyatlarini hisobga olish lozim [3]. Bitiruv malakaviy ishida so'z, so'z birikmalari, gap va iboralarni bir tildan boshqa tilga sifatli tarjima qilish masalalari ham olib qaraladi va tahlil qilinadi.

Tarjima qilish protsessida gaplarning ma'nosini yo'qotmaslik uchun tizim oldin so'z birikmalari va frazalarni sodda so'zlardan ajrata olishi kerak bo'ladi. Buning uchun dasturdan tarjimani bir-qancha etapda olib borish, ya'ni dastlab

parallel gaplar, so'ngra so'z birikmalari va so'zlarni taqqoslash talab qilinadi. Misol uchun: o'zbekcha "*Yangi shahar vujudga keldi*" gapini qoraqalpoqcha tarjimasi "*Jan'a qala payda boldi*" deb tarjima qilish to'g'ri bo'ladi. Bu gapni so'zma-so'z tarjima qilganda "*Jan'a qala denege keldi*" singari xatolik yuz bergan bo'lar edi. Biroq yevropa tillaridan turkiy tillarga tarjima qilish uchun katta ko'lamdagi tarjima modeli asosidagi bazaga ehtiyoj tug'iladi. Shu joydan ham tarjima modelining qanchalik ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin [3].

Bir-biridan juda uzoq bo'lgan tillar gruppasi uchun to'laqonli tarjimani amalga oshirib bo'lmaydi. Agar tillar gruppasi bir gruppaga tegishli bo'lsa, yuqorida bildirilgan fikr o'z kuchini yo'qotadi. Biz qarayotgan tillar turkiy tillar, ular bir gruppaga tegishli.

Ma'lumki, turkiy tillar uch gruppaga bo'linadi:

- 1) qarluq gruppasi (o'zbek, uyg'ur)
- 2) qipchoq gruppasi (qozoq, tatar, qirg'iz, qoraqalpoq, boshqird va h.k.)
- 3) o'g'uz gruppasi (turk, ozarbayjon, turkman, va h.k.)

Bu joyda eng katta gruppasi qipchoq gruppasi, eng kichik gruppasi qarluq gruppasi

hisoblanadi. Turkiy tillarda gruppasi osti tillar bir-biriga juda ham yaqin. Misol uchun, turk-ozarbayjon, o'zbek-uyg'ur, qozoq-qirg'iz va h.k. Turkiy tillar til darajasida bir-biriga yaqin bo'lgani uchun bir turkiy tildan ikkinchi bir turkiy tilga tarjimani amalga oshirishda, tarjimaning asosiy qismi morfologik va morfosintaktik darajadagi tillarning modeli asosida amalga oshiriladi. Ushbu gipoteza asosida turkiy tillar uchun tarjimaning arxitekturasini yaratish maqsadga muvofiq [8, 9].

O'zbekiston Respublikasi o'quv o'rinlaridagi o'qitiladigan bir necha tillardagi o'quv darsliklar, hujjatlar va ikkinchi tilga tarjima qilingan badiiy asarlar bizga turkiy tillar tarjimon tizimi parallel ma'lumotlar bazasini kengaytirishda keng imkoniyat yaratib beradi [3-5]. Sababi neyron avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlarining ishlash protsessida mashina o'zi o'rganuvchi tarjima va lug'at

algoritmilari uchun kerak parallel korpuslar ya'ni til juftliklarini yig'ish uchun, aynan shu singari manbalar qimmatli resurs hisoblanadi.

1.4. Elektron lug'at dasturlari haqida umumiy tushuncha

Lug'at — muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi, leksika; 2) so'zlar (yoki morfemalar, so'z birikmalari, iboralar va boshqalar) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasini haqida ma'lumotlar jamlangan kitob. Elektron lug'at bo'lsa ananaviy lug'atning hisoblash texnikalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan yoxud raqamlashtirilgan ko'rinishidir.

Lug'atlar ma'naviy madaniyat sohasida muhim o'rin egallaydi, ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks ettiradi. Lug'at bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: o'quvchiga muayyan hodisa haqida ma'lumot beradi; uni o'z va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtiradi; tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam beradi. Lug'atlar juda kadim davrlarda pay-do bo'lgan (qarang Leksikografiya); hozirgi davrda ma'lumotaxborot to'plash va uni o'quvchiga yetkazishda muayyan ahamiyatga ega. So'zni tavsiflashdagi bir kancha farqli xususiyatlariga ko'ra, Lug'atlarni asosan 2 turga: ensiklopedik va lingvistik (filologik), lug'atlarga ajratish mumkin. Ensiklopedik lug'at so'zlarning o'zini emas, balki ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalarni izohlaydi, tushuntiradi.

Tarjimon dasturlar - bu matnlarni bir tildan ikkinchi tilga kompyuter yordamida tarjima qilish, orfografik xatolarni aniqlash hamda matnni tahrir qilish imkoniyatini beradi.

Avtomatik tarjima vositalaridan foydalanish.

Avtomatik tarjima dastur vositalarini shartli tarzda ikkita asosiy toifaga bilish mumkin. Birinchi toifa kompyuter lug'atlaridan iborat. Kompyuter lug'atlarining vazifasi oddiy lu'atlar vazifasi bilan bir xil: noma'lum siz mazmunini anglatadi. Kompyuter lug'atlarining afzalligi kerakli siz mazmunini avtomatik izlash va topishning qulayligi va tezligida kirinadi. Avtomatik lug'at, odatda, siz tarjimasini berilgan klavishlar kombinasiyasini bosish orqali sizlarni tarjima qilish imkonini beradi. Lug'at nafaqat sizlar, balki tipik siz birikmalarini sham izida jamlashi mumkin.

Ikkinchi toifaga to'liqmatni avtomatik tarzda tarjima qilishga imkon beruvchi dasturlar kiradi. Ular bir tildagi (xatosiz tuzilgan) matnni qabul qilib, boshqa tildagi matnni beradi. Ish protsessida dastur qamrovli lug'atlar, grammatik qoidalar majmui va dastur nuqtai nazaridagi eng sifatli tarjimini ta'minlovchi boshqa omillardan foydalanadi.

Ushbu vositalardan foydalangan holda dasturlar boshlang'ich matndagi gaplarning grammatik tarkibini tashlil qiladi, so'zlar orasidagi aloqani topadi va jumlaning boshqa tildagi to'g'ri tarjimasini qurishga intiladi. Gap qancha qisqa bilsa, tarjima shuncha to'g'ri chiqishiga imkon yaratiladi. Uzun gaplar va murakkab grammatik gap qurilishlarida tarjima sistemasi yaxshi natijaga olib kelmasligi mumkin.

Hozirda dunyoda ingliz tilidan boshqa tilga va boshqa tildan ingliz tiliga avtomatik tarjima qiluvchi dasturlar keng qo'llanilyapti. Bu ingliz tilining xalqaro muloqot borasida yetakchi rol o'ynayotganligi bilan izoshlanadi. Ingliz tili o'rganish uchun ancha qulay va sodda, ammo uning soddaligi avtomatik tarjima sistemalari uchun kutilmaganda qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Gap shundaki, ingliz tilidagi bir xil yozilgan so'zlar ko'pincha nutqning turli qismlariga tegishli biladi. Bu gapning grammatik tashlilini qiyinlashtiradi va avtomatik tarjimadagi qo'pol xatolarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Biz kundalik faoliyatda tarjima programmalarining ko'p turlarini uchratishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda Rossiyada ham, shu jumladan respublikamizda ham quyidagi vositalar keng qo'llanilmoqda:

- STYLUS (PROMT firmasi mahsuloti) - elektron tarjimoni;
- PROPIS (AGAMA firmasi mahsuloti) - elektron lug'ati;
- ORFO, KONTEKST (INFORMATIK firmasi mahsuloti va LINGVO (BIT firmasi mahsuloti) - orfografik xatolarni aniqlovchi vositalar.


Biroq biz quyidagi eng ko'p tarqalgan va tanilgan Stylus dasturlariga to'xtaymiz.

Rus tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan rus tiliga avtomatik tarjima qilish sistemalaridan Socrat va Stylus kabi dasturlar keng tarqalgan. Stylus, shubshasiz, tarjimada yana ham yuqori sifat va o'zgaruvchanlikni ta'minlaydi. Stylus dasturining so'nggi versiyasi iz nomini o'zgartirdi va u endi Promt deb ataldi.

Prompt dasturi universal, shu bilan birga ixtisoslashgan lug'atlardan iborat boy tarkiblarni iz ichiga olib, ulardan foydalanishni boshqaruvchi vositalarni iz ichiga oladi. Bironta ham lug'atga kirmagan so'zla tarjimasini mustaqil tarzda aniqlab, iste'mol lug'atida saqlaydi. Bundan tashqari, Prompt dasturi xususiy ismlar va tarjima qilish talab etilmaydigan boshqa sizlar, misol uchun, qisqartma so'zlar bilan ishlash qoidalarini ko'rsatish imkonini ham beradi.

Socrat - tarjimon dasturi

Mazkur dastur yordamida faylda joylashgan yoki bevosita kiritilgan matnlarni tarjima qilish mumkin, buning uchun SOCRAT menyusi bo'limlaridan foydalaniladi. Mazkur dastur menyusi bo'limlaridan mohiyati jihatidan WINDOWS ning amaliy dasturlari menyusiga deyarli o'xshash. Farqlanish perevod va clovari bo'limlarida mavjud bo'lib



1.3-rasm. Socrat dasturining umumiy ko'rinishi.

Bu yerda tarjima qilish uchun lug'atlar majmuasi berilgan, undan tarjima qilish usuli tanlanadi. Menyu quyisida joylashgan uskunalar paneli yordamida zaruriy vazifalar tez va o'ng'ay amalgam oshirilishi mumkin.

Vid bo'limidagi informatsionnaya panel mazkur panelni darchaning pastki qismda hosil qiladi. Ma'lumot paneli tarkibiga uchta qo'yilma kiradi va ular "sichqoncha" ning o'ng tugmasini bosish orqali chiqariladi. Ishlatiluvchi lug'atlar tarjima qilishda foydalanishimiz mumkin bo'lgan va kompyuter xotirasidagi mavjud lug'atlar ro'yxatini keltiradi.

Tanish bo'lmagan so'zlar qo'yilmasi mavjud lug'atlarda aniqlanmagan noma'lum so'zlar ro'yxatini beradi. Bu so'zlarni tarjima qilmasdan zaxirada saqlash uchun zarezerovanniye slova qo'yilmasiga o'tqazildi.

Zarezervirovanniye slova qo'yilmasida tarjima qilinishi zarur bo'lmagan (misol uchun WINDOWS) so'zlar ro'yxati saqlanadi.

Hujjatni tarjima qilish

1. Fayl menyusida ochish bandini tanlang. Tarjima uchun hujjat turli xil formatlarda berilishi mumkin va ular kompyuter uchun qulay formatlarda o'tkaziladi .
2. Ochish muloqotli darchaning matnlar sohasidan kerakli faylni tanlab oling va Ochish tugmasini bosing.

3. Konvertirovat fayl muloqotli darchasida tarjima qilish yo'nalishi aniqlanadi va boshlang'ich matn ekranda hosil bo'ladi.
4. Hujjat tarjima qilish uchun tayyor. Perevod bo'limidan , Ves tekst bandi faollashtirilgandan so'ng ekranda o'ng darchada boshlang'ich hujjat chap darchada esa uning tarjimasi bo'ladi.
5. Fayl bo'limida saxranit bandi orqali tarjima biror nom ostida saqlab qo'yiladi. Natijada tarjima qilingan hujjat kerakli formatda hosil bo'ladi va uni biror matn muharririda qayta ishlash mumkin

Yuqorida keltirilgan yordamchi dasturlardan tashqari foydalanuvchining shaxsiy bloknotini tashkil qilish, tadbirkorlarning vaqtini to'g'ri taqsimlashga yordam beruvchi, ma'ruzalar uchun slaydlar hosil qiluvchi, musiqa eshitish dasturlari mavjud. Har bir foydalanuvchi o'z oldiga qo'ygan vazifalardan kelib chiqib, bu dasturlar bilan alohida tanishib chiqishi mumkin.

Stylus – tarjimon dasturi

Mazkur tarjimon dastur yordamida faylda joylashgan yoki bevosita kiritilgan matnlarni tarjima qilish mumkin, buning uchun Stylus menyusi bo'limlaridan foydalaniladi.

Mazkur dastur menyusi bo'limlari mohiyati jihatdan Windowsning amaliy dasturi menyusiga deyal o'xshash. Farqlanish Перевод va Словари bo'limlarida mavjud bo'lib, bu bu yerda tarjima qilish uchun lig`atlar majmuasi berilgan, undan tarjima qilish usuli tanlanadi.

Menyu quyisida joylashgan uskunalar paneli yordamida zaruriy vazifalar tez va o'ng`ay amalga oshirish mumkin.

Stylus dasturi

Вид bo'limidagi Информационная панель asosiy panel, Tarjima paneli Formatlash panelini darchaning pastki qismda hosil qiladi.

Ma'lumot paneli tarkibiga uchta qo'yilma kiradi va ular "sichqoncha" ning o'ng tugmasini bosish orqali chiqariladi.

Используемые словари (Ishlatiluvchi lug'atlar) tarjima qilishda foydalanishimiz mumkin bo'lgan va kompyuter xotirasidagi mavjud lug'atlar ro'yxatini keltiradi.

Незнакомые слова qo'yilmasi mavjud lug'atlarda aniqlanmagan noma'lum so'zlar ro'yxatini beradi. Bu so'zlarni tarjima qilmasdan zahirada saqlash uchun Зарезервованные слова qo'yilmasiga o'tkaziladi. Bu qo'yilmada tarjima qilinishi zarur bo'lmagan (misol uchun, Windows) so'zlar ro'yxati saqlandi.

Hujjatni tarjima qilish.

1. Файл menyusining Открыть bandi tanlanadi. Tarjima uchun hujjat turli xil formatlarda berilishi mumkin va kompyuter uchun qulay formatlarga o'tkaziladi.

2. Открыть muloqatli darjasining matnlar sohasidan kerakli faylni tanlab olib Открыть tugmasi bosiladi.

3. Конвертировать файл Открыть muloqatli darjasida tarjima qilish yo'nalishi aniqlanadi va boshlang'ich matn ekranda hosil bo'ladi.

4. Hujjat tarjima qilish uchun tayyor bo'lgacha Перевод bo'limidan Весь текст bandi faollashtiriladi. So'ng ekranning o'ng darchasida boshlang'ich hujjat, chap darchada esa uning tarjimasi hosil bo'ladi.

5. Файл bo'limida Сохранить bandi orqali tarjima biror nom ostida saqlab qo'yiladi. Natijada tarjiam qilingan hujjat kerakli formatda hosil bo'ladi va uni birbor matn muharririda qayta ishlash mumkin. Bundan tashqari foydalanuvchining shaxsiy blaknotini tashkil qilish, tadbirkorlarning vaqtini to'g'ri taqsimlashda yordam beruvchi, ma'ruzalar uchun slaydlar hosil qiluvchi, musiqa eshitish dasturlari mavjud.

PROMT tarjimon dasturining imkoniyatlari.

Prompt sistemasini universal, shu bilan birga ixtisoslashgan lug`atlardan iborat boy tarkiblarini o`z ichiga olib, ulardan foydalanish boshqaruvchi vositalarini o`z ichiga oladi. Bironta ham lug`atga kirmagan sozlar tarjimasini mustaqil tarzda aniqlab, iste'mol lug`atida saqlaydi. Bundan tashqari, Prompt programmami hususiy ismlar va tarjima qilish talab etilmaydigan boshqa so`zlar, misol uchun, qisqartma so`zlar bilan ishlash qoidalarini ko`rsatish imkonini ham beradi.

Programmaning qo`shimcha imkonyatlari fayllarning turkum tarjimalari, tekislanmagan matnlarning tezkor tarjimalari, shuningdek, Internetdagi Web sahifalarini sinxron tarjima qilish imkonini o`z ichiga oladi. Ushbu vositalar alohida ilova programmalar sifatida amalda tatbiq etilgan.

Prompt programmasining ishchi oynalari

Prompt programmasi o`rnatilgandan so`ng bosh menyuda uni ishga tushirishga izn beruvchi punktlar paydo bo`ladi.

Indikatsiya panelida (vazifalar panelining o`ng chetida) programmani tezlikda ishga tushiruvchi belgi o`rnatiladi. Sichqonchaning o`ng klavishasini ushbu belgi ustida bosish bilan sistemaning barcha ilovalarini ishga tushirishga imkon beruvchi menyu ochiladi. Asosiy programma Prompt punktini tanlanganda ishga tushiriladi.

Prompt interfeysi Windows 9x (bunda X-95, 97, 98, 2000 larni bildiradi) operatsion sistemasi talabalariga muvofiq amalga tatbiq etilgan. Programmani ishga tushirgandan so`ng ekranda menyu satri, asbob panellari satri va ishchi sohasidan iborat ilova oynasi ochiladi.

Lug`atlar bilan ishlash

Avtomatik tarjimaning sifati qanday lug`atdan foydalanilayotganligiga bog`liq. Prompt sistemasi umum iste'moldagi so`zlardan iborat bo`lgan bosh lug`at, shuningdek turli sohaning ixtisoslashgan lug`atlarini o`z ichiga oladi. Ixtisoslashgan lug`atlarga bo`lgan zaruriyat inson faoliyatining turli jabhalarida

ushbu sohaga tegishli tushunchalarni iodalovchi turli terminal qo'llanilishi bilan bog'liq. Bu terminallardan ba'zilar o'ziga xos ma'noga ega bo'lishi, bazilari kundalik turmushda, ba'zida boshqacha ma'noda ishlatilishi mumkin. Maxsus matnlar tarjimasida terminal aqat muvofiq keluvchi mazmunda ishlatilishi kerak.

Misol uchun inglizcha box so'zini olamiz. Universal lug'atlar uni yashik (quti) deb tarjima qilishlari mumkin. ammo programma ta'minoti bilan bog'liq matnlarda bu so'z muloqot oynasi ma'nosini anglatadi.

Tarjima sifatini oshirishning boshqa usuli programmaga u tarjima qilsa olmaydigan yoki tarjima qilmasligi kerak bo'lgan ba'zi so'zlarni ishlatish usulini ko'rsatishdan iborat. Buning uchun tarjima qilmaydigan so'zlar (misol uchun, Windows) ni bandlab qo'yish va programma lig'atida bo'lmagan so'zlar tarjimasini qoidalarni berish zarur.

Lug'atni tanlash

Foydalanilayotgan lug'atlar ro'yhati axborot panelidagi foydalaniladigan lug'atlar qo'shimcha varaqasida keltirilgan. Lug'atlar ko'rsatilgan tartibda ko'riladi, shu bilan birga keyingi lug'atga o'tish ko'rilayotgan lug'atda kerakli soz bo'lmagan taqdirdagina amalga oshiriladi. Tarjima sifati nafaqat lug'atlarning soni, balki ularning programmada terilish tartibiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Shunga alohida e'tibor berish kerakki, programmadagi terilishda, odatda birinchi bo'lib iste'mol lug'ati turadi. Iste'mol lig'atlari tahrir qilish va o'zgartirish uchun ochiq bo'ladi. Shu tariqa, foydalanuvchi tomonidan to'ldirilgan va o'zgartirilgan maqolalar birinchi navbatda e'tiborga olinadi.

So'zlarni band qilish

Idoradagi ishlarni avtomatlashtirish. Ko'pgina hujjatlar faqat "qisman" tarjimani talab qiladi. Atama so'zlar va tushunchalar asliyat tilida qolishi kerak.

Misol uchun, kompyuterga doir adabyotlarda programma, operatsion sistemalar va ishlab chiqaruvchi kompaniyalari nomlarini tarjima qilish yoki ularni o'zgartirish maqbul emas.

Avtomatik tarjima sistemasi ma'lum soʻz yo soʻz birikmasini tarjima qilmasligi uchun ushbu soʻzni band qilish darkor. Band qilingan soʻzlar axborot panelidagi Band qilingan soʻzlar qoʻshimcha varaqchasidagi roʻyxatda sanab oʻtiladi. Hujjat matnida band qilingan soʻz uchrashi bilan u boshqa rangda ajralib koʻrinadi.

Band qilingan soʻzlarning yagona lugʻatidan foydalanish imkoniyati bir mavzuga aloqador bir guruh hujjatlar bilan yoki bitta katta hujjatning koʻplab qismlari bilan ishlashda nihoyatda qulaydir.

Lugʻatlarni toʻldirish va sozlash

Prompt programmasi tarkibiga kiritilgan lugʻatlar ancha boy ekanligiga qaramay, hujjatlarda uchrovchi barcha soʻzlar kiritilganligini kafolatlab boʻlmaydi. Notanish soʻzlarni programma qizil rangda ajratib koʻrsatadi.

Ammo barcha notanish soʻzlar ham lugʻatga kiravermaydi. Ular orasida band qilish lozim boʻlgan soʻzlar ham uchrashi mumkin. Shuningdek bu soʻzlar toʻgʻri yozganligini tekshirib koʻrish kerak. Agar lugʻat haqiqatdan ham toʻliq boʻlmasa, unda soʻzni isteʼmol lugʻatiga qoʻshish mumkin.

Lugʻatni malakali tarzda toʻldirish juda muhim va masʼuliyatli tadbir. Lugʻatning haddan ziyod zichligi tarjima sifatini pasaytirishi mumkin. Shuningdek bir soʻz turlicha maʼno koʻrinishlariga ega boʻlishi mumkinligini ham nazarda tutish kerak.

Prompt programmasi soʻzni lugʻatga qoʻshishda ikki: boshlangʻicha va mutaxassis rejmini koʻzda tutadi. Birinchi rejimda soʻzning yetishmaydigan barcha Grammatik shakllari avtomatik tarzda qoʻshiladi, ammo ular doim ham toʻgʻri boʻlavermaydi. Ikkinchi rejimda foydalanuvchining oʻzi barcha gramatik shakllarni beradi, ammo bu ikkala til gramatikasini yaxshi bilishni talab qiladi.

Prompt programmasining qolgan sozlovlari


Avtomatik tarjima sistemasi ishining samarasi va sifati, asosan unda mavjud lug`atlar takibi va ularning sifatiga bog`liq. Lug`atlarning siati esa ular qanday tartib bilan to`ldirganiga qarab belgilanadi.

Elektron lug`atlarni ishlab chiqish ananaviy lug`atlardan foydalanishdagi noqulayliklar va nuqsonlarini o`rnini to`ldirib yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

BOBGA OID XULOSA

I-bob avtomatlashtirilgan tarjima asoslari va arxitekturasini tahlil qilishga qaratilgan bo`lib, fasllarda avtomatlashtirilgan tarjima teoriyasi asoslari, qoidalarga asoslangan. Shu bilan birga statistik va neyron avtomatlashtirilgan tarjima yondashuvlar, neyron avtomatlashtirilgan tarjima qilish arxitekturasini, ko`p tilli neyron mashinasi tarjimasi, semantika va kompyuter lingvistikasi muammolari, lingvistikaga zid muammolari, o`zbek, qoraqalpoq va boshqa turkiy tillarida avtomatlashtirilgan tarjima muammolari tahlil qilindi.

Olimlarning ushbu yo`nalishda olib izlanishlarini tahlil qilish natijasida, faqat qoidalarga asoslangan va statistik tarjima yondashuvlari bilan yuqori sifatli tarjimani amalga oshirib bo`lmasligi ayon bo`ldi. Sababi parallel tekstlarni qayta ishlash, kata hajmdagi ma`lumotlarni va tekstlarni intellektual tahlil qilish masalalari yuzaga keldi.



1.10 - rasm. An'anaviy, statistik va neyron tarmoq tarjimasi ko'rsatkichlari

Bu o'z navbatida bizga sun'iy intellekt tizimlari jumladan o'zi o'rganuvchi va sun'iy neyron tarmoqlari algoritmlaridan foydalanishni talab qilmoqda.

Neyron avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari 2015-2016 yildan boshlab joriy qilina boshlandi. Avtomatlashtirilgan tarjima yondashuvlarini tahlil qilib neyron mashina tarjimasi tizimlari sifat ko'rsatkichlari (*1.10 - rasm*), an'anaviy va statistik tarjima bilan taqqoslaganda qisqa vaqtda sezilarli darajada o'sganiga govoh bo'lishimiz mumkin.

II. TARJIMON VA LUG'AT DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN MODELLARI VA ALGORITMLAR TAHLILI

Ushbu bobda avtomatlashtirilgan tarjima qilish modellari va algoritmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turkiy tillar tekstlarni avtomatlashtirilgan tarjima qilish modellari, usullarini ishlab chiqish muammolari tahlil qilinadi. Turkiy tillar avtomatlashirilgan tarjimon tizimlari algoritmlari ishlab chiqish masalalari o'rganiladi. Qismlarda neyron avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari modellari muammolari o'rganilgan.

2.1. Tarjimon va lug'at dasturlari modelari

Tarjimaning modeli – butun yoki uning bir qismi ustida tarjima qilish protsessi amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator operatsiyalarning shartli ta'rifi yoki tarjima qilish protsessini amalga oshirish protsessining shartli ko'rinishi, tarjima qilish protsessining asosiy etaplarini aks ettiruvchi va har bir etapda tarjimonning xulq-atvorini aks ettiruvchi asosiy tarkib deb sanaladi.

XX-asrning ikkinchi yarmida tarjima teoriyasidagi asosiy muammolardan biri sifatida paydo bo'ldi. Tarjima modeli tarjima qilish protsessining o'ziga xos xususiyati hisoblanib, original tekstni tahlil qilish va yangi tekstni yaratish protsessidagi tarjimonning harakatlari aks etgan. Tarjima amaliyoti uchun bunday tarjima modellarining rivojlanishining ahamiyati shundaki, model tarjimonga qiyin tarjima vazifalarini hal qilishga yordam berishi mumkin deb sanaladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar uchun etiborlisi, joriy tildan tarjima tiliga o'tish etapi va tarjimaning tekstini tuzish yondashuvi va undan keyingi foydalanishdan iborat edi.

Tarjima qilish protsessini tavsiflash muammosi dolzarbligicha qolmoqda, chunki barcha harakatlar tarjimonning ongida amalga oshiriladi va to'g'ridan-to'g'ri monitoring qilinmaydi. Tarjima - bu asl va tarjima tekstlarini solishtirish demakdir. Tarjima modeli ikkita jihatni hisobga olgan holda tasvirlanishi mumkin: 1) modelning umumiy tavsifi, uni qo'llashning mumkin bo'lgan ko'lamini ko'rsatuvchi; 2) ushbu model doirasidagi tarjima operatsiyalarining turlari.

Tarjima jarayonlarini modellashtirish protsessi tarjimani shakllantiruvchi uchta qismdan iborat: dastlabki kod yaratuvchisi, tarjimon (retseptor), joriy tekst o'giruvchi va tarjima qilingan tekstning o'quvchi bo'lgan tarjimon.

Odatda tarjima modeli quyidagi ikki yo'nalishdan biriga yo'naltirilgan bo'ladi: 1) ekstralingvistik qonuniyatlar yoki 2) semantik tuzilish xususiyatlari.

Bugungi kunda ko'plab tarjima modellari mavjud bo'lib, ular orasida eng keng tarqalgan: tahliliy, psixolinguistik, semantik, semiotik, sinergetik, aylantiruvchi, aylantiruvchi-semantik, ekvivalent, shuningdek, vositachilik tarjimasi modellari.

Avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari singari murakkab tabiiy tillarni qayta ishlash uchun sun'iy aql va neyron tarmoqlardan foydalanish juda tez rivojlanishga olib keladi.

2.2. Statistik tarjima qilish modellari va algoritmlari

Statistik mashinani tarjima qilish - bu katta hajmli til juftliklarini taqqoslash asosida tekstlarni tarjima qiluvchi yondashuv yuqorida I-bobda batafsil ko'rsatilgan.

Til juftligi - bitta tilda gaplarni o'z ichiga olgan tekstlar va ularning ikkinchi tildagi aynan unga mos ikkinchi variantlari bo'lgan tekstlardir. Statistik avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlari «o'zi o'rganish» xususiyatiga ega bo'lib, agar ko'proq til juftligi mavjud bo'lsa va ular bir-biriga mos kelsa, statistik avtomatlashtirilgan tarjima va lug'at tizimlarining natijasi shunchalik yaxshi bo'ladi [1, 31].

Statistik yondashuvda tarjima muammoni shovqinli kanal nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Misol tariqasida ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishni ko'rib chiqamiz.

Tarjima qilish protsessi, o'zbekcha jumlaning ingliz tilidagi va ingliz tilidagi jumlaning o'zbek tilidagi ehtimoligini, yoki o'zbekcha jumlagam mos variantlarni maksimal darajada oshiruvchi o'zbekcha jumlaning izlash orqali amalga

oshiriladi. Bayes teoremasiga ko'ra, quyidagi model o'zbekcha jumlaning ingliz tilidagi tarjima qilishning yaxshi variant deb e'tirof etiladi:

$$\max_e P(e|f) = \max_e P(e) * P(f|e)$$

Bu joyda e – tarjima taklifi va f – original taklif.

Shunday qilib, bizga *manba modeli* va *kanal modellari*, yoki *til modellari* va *tarjima modellari* kerak bo'ladi. Til modeli, tugallanuvchi 2-tilning har qanday jumlasiga (bizning holimiz rus tilida) ehtimollik kiritishini belgilashi kerak va tarjima modelida yakuniy tilda ma'lum bir jumla sharti bilan original jumlagamalik ehtimolligi baholashi kerak.

Umuman, mashinani tarjima qilish tizimi ikki rejimda ishlaydi:

Tizimning o'qitilishi: parallel tekstlarni tayyorlash korpusi olinadi va chiziqli dasturlash ko'magida tanlangan tarjima modeliga muvofiq ishning o'zbek tili bo'limida mavjud bo'lgan ingliz tili bilan ehtimolligini (misol uchun eng yuqori darajaga olib chiqadigan tarjima jadvali jadvallarining qiymatlari) so'raladi. Xuddi shu korpusning o'zbek tili qismida o'zbekcha modeli yaratiladi.

Ekspluatatsiya: olingan ma'lumotlarga asosan inglizcha tanish bo'lmagan so'z qidiriladi, o'zbek tilining til modellari va tarjima modellari tomonidan berilgan ehtimolliklar tarjimani maksimal yaqinlik darajasini ishlab chiqarishga intiladi. Bunday qidiruv uchun ishlatiladigan dastur dekoder deb ataladi.

Tabiiy tillarni qayta ishlash sohasida N gramm asosan probabilistik (taxminiy) modellarga asoslangan prognozlash uchun ishlatiladi. N -grammli model, avvalgi barcha ma'lumotlar ma'lum bo'lsa, N -grammning oxirgi so'zining ehtimolligini hisoblaydi. Tilni modellashtirish uchun ushbu yondashuvdan foydalanib, har bir so'zning ko'rinishi avvalgi so'zlarga bog'liq deb taxmin qilinadi [3, 4].

Statistik tarjimada har bir N -gramm ehtimoli uning o'rganuvchi korpusda paydo bo'lishi bilan aniqlanadi. Misol uchun, *trigram* modeli yassi tekislash bilan, x va y so'zlaridan keyin tekstda kiritilgan har bir so'zning grammatik ehtimolligini quyidagi formula bo'yicha baholaydi:

$$b(z | x y) = 0,95 * \text{chastota}(\langle\langle xyz \rangle\rangle) / \text{chastota}(\langle\langle xy \rangle\rangle) + \\ 0,04 * \text{chastota}(\langle\langle yz \rangle\rangle) / \text{chastota}(\langle\langle z \rangle\rangle) + \\ 0,04 * \text{chastota}(\langle\langle z \rangle\rangle) / \text{umumiy} - \text{soni} - \text{so'z} + \\ 0,002$$

Tarjima qilishning eng oddiy statistik modeli - soʻz uchun tarjima modelidir. IBM Model 1 deb nomlanadigan ushbu modelda, jumla bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish uchun barcha soʻzlarni tarjima qilishga va ularni toʻgʻri tartibda til modelini taqdim qilish uchun yetarli deb qabul qilinadi.

Model № 1 tomonidan boshqariladigan yagona maʼlumotlar massivi, ikki tilli soʻzlarning oʻzaro tarjima oʻzaro bogʻliqligini ehtimolliklar jadvali:

Soʻz	Amount	bonus	compensation	payment	rate	...
Pul oʻtkazma	15%	8%	6%	71%	0%	
Toʻlov	0%	0%	0%	97%	3%	
...						

Ushbu modelda tarjima jumlasiga bilan asl jumlaning ehtimolligi:

$$P(f | e) = \sum_a P(a, f | e)$$

, bu joyda $P(a, f | e)$ – muayyan e uchun, a tarjimasiga jumlasiga muvofiq, soʻzning darajasiga mos keladigan original jumla f ning paydo boʻlishi ehtimolligi.

$$P(a, f | e) = \prod_{j=1}^m t(f_j | ea_j)$$

, bu joyda t - mos keladigan tarjima soʻzi ea_j bilan aniqlangan holda, j holatidagi asl varianti soʻzining ehtimolligi. Ikkala tarjima translatsiyalari tarjima ehtimolliklari jadvalidan olinadi.

$P(a, f | e)$ ni $P(a | e, f)$ ga ozaytirish, yaʼni, ushbu ikki jumlaning tenglashtirish uchun, bir juftlik uchun ehtimolligi har ehtimolligi berilgan bir $P(a, f | e)$ juftlikning barcha qatorlarning ehtimoli summasi bilan normallashtiriladi:


$$P(a|e,f) = \frac{P(a,f|e)}{\sum_a P(a,f|e)}$$

